

## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARGA KO'RSATILAYOTGAN XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH

*Adhamov Umidjon Yorqinjon o'g'li*  
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*  
*Bank ishi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Jismoniy shaxslarni kreditlash banklarning muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga aholining ehtiyojlarini talabga aylantirish hamda ularning turmush farovonligini oshirishga zamin yaratuvchi vosita hisoblanadi. Shu jihatdan jismoniy shaxslarni kreditlashni tadqiq qilish va uni takomillashtirish, tijorat banklari va mijozlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada jismoniy shaxslarni kreditlashning nazariy jihatlari tadqiq qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy shaxs, kredit, ipoteka krediti, iste'mol krediti, mikroqarz, chakana kreditlash, qarz yuki, kreditga layoqatlilik

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy mazmuni inson qadri uchun tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 60-son farmonida "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 barobar qisqartirish" maqsadi belgilangan. Tijorat banklari tomonidan aholi tadbirkorlik faoliyatiga kreditlar ajratish orqali aholi daromadlarini va turmush farovonligini oshirish mumkin [1].

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash banklarning muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga aholining ehtiyojlarini talabga aylantirish hamda ularning turmush farovonligini oshirishga zamin yaratadi. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, umumiy qilib YaIM yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy shaxslarni kreditlashning taraqqiy etishi va rivojlanishi, kredit munosabatlarini jadallashuviga, kreditlash shakllari va turlarini ko'payishiga, axborot texnologiyalari asosida kreditlashni tashkil etilishi va boshqa shu kabi

jarayonlarida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Bunday sharoitda albatta, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kreditlashning ham nazariy ham huquqiy jihatlari tadqiq qilish zaruratga aylanadi. Sababi, bank va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan kredit munosabatlarini tashkil etish va shartnomaviy munosabatlarga

kirishishda iqtisodiy tushunchalarni to'g'ri talqin qilinishi va qo'llanilishi muhim hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda aholini banklar tomonidan kreditlashni rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan va etilmoqda. Uning mazmuni va fundamental jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar E.J.Dolan, Dj.Sinki kabilar tomonidan keng o'rganilgan. Shuningdek, MDH davlatlari iqtisodchi olimlaridan O.Lavrushin, E.Jukov, E.S.Kavruk, G.G.Korobova, S.V.Kudryashov, G.N.Beloglazova, V.V.Sidorov va boshqa olimlar katta hissa qo'shgan [4-5].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlashning o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Kredit miqdorining kichik ekanligi;
2. Jismoniy shaxslarni kreditlashning bir xil andozaga ega ekanligi;
3. Kreditlashni tashkil etishning umumiyligi;
4. Kreditlash tartibining sodda va qulayligi;
5. Kreditning shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi;
6. Kreditlash jarayonida dastlabki omonatlarni shakllantirilishi;
7. Kredit muayyan maqsadsiz ajratilishi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi 2022 yil 20 apreldagi 765-sonli qonunning 5-moddasiga asosan "jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida ellik million so'mdan oshmaydigan miqdorda pul mablag'larini — mikroqarz berish" mumkinligi va tijorat banklari, mikromoliya va to'lov tashkilotlari, shuningdek mikroqarzlarni berishga oid qism bo'yicha lombardlar mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga haqli ekanligi qayd etilgan.

Jismoniy shaxslarga kreditlar berish va mikroqarz xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartib-taomillarni belgilab bergan yuqoridagi hujjatlarda jismoniy shaxslarning muomala layoqati, ya'ni 18 yoshga to'lgan bo'lishi yoki muomala layoqatiga ega bo'lgan bo'lgan jismoniy shaxslar xizmatlar iste'molchi bo'lishi nazarda tutilmagan.

Tijorat banklarining chakana kredit faoliyati standartlashtirish, tabaqalashtirish va ommaviylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

1. Standartlashtirish tamoyili deganda ichki bank hujjatlarida qayd etilgan va kredit jarayoni ishtirokchilari tomonidan majburiy ravishda bajarilishi shart bo'lgan, shu bilan birga mijozlarning kredit mahsulotlariga bo'lgan talablariga e'tibor qaratiladigan kredit va chakana xizmatlarning ishlab chiqilgan texnologiyasiga bo'lgan ehtiyoj tushuniladi.

2. Differentsiatsiya tamoyili chakana kredit mahsulotlari bo'yicha bir hil guruhlarni shakllantirish. Chakana kreditlarning samaradorligini baholash va bank talab qiladigan yo'nalishda rivojlanish imkonini beradi.

3. Ommaviylik tamoyili chakana mijozlarni keng qamrab olish va

chakana segment mijozlarining nisbatan kichik miqdordagi (pul ko‘rinishida) individual kredit so‘rovlari natijasida kredit mahsulotlarini sotishni amalga oshirishni ta‘minlaydi.

Banklarning chakana kreditlashning an‘anaviy usulidan onlayn shaklda taqdim etish amaliyoti o‘tish va uning rivojlanishi chakana kreditlash borasidagi munosabatlarni tadqiq qilishni taqozo qilmoqda. Jismoniy shaxslarni kreditlashga doir aksariyat tadqiqot ishlarida asosan jismoniy shaxslarga iste‘mol kreditlar ajratish va kreditga layoqatliligini baholashning kredit skoringi bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilinadi.

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga ajratish va kreditlash jarayonlarini bosqichlarga ajratib tahlil qilish, xususan chakana va korporativ kredit portfeliga ajratib samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash bir qator ustunliklarni beradi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni kredit mahsulot turlari va mijoz toifalariga ajratib tahlil qilish chakana kreditlashning samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bank kredit portfelida muammoli kreditlar ulushini kamayishiga va kredit portfeli sifatini oshishiga zamin yaratadi. Tijorat banklari chakana kreditlash amaliyotlarini kichik guruhlarda va mijozlar toifalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili natijasida chiqarilgan xulosalar yuqori natijalarni beradi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni maqsadi va muddatli xususiyatlarini inobatga olib, jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

### 1-jadval Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kredit turlari tasnifi

№	Kredit turlari	Maqsadi	Muddati	Ta‘minoti
1.	Mikroqarz	maqsadsiz	1 yilgacha	Kafillik va boshqa ta‘minot
2.	Iste‘mol krediti.	tovar va xizmatlar uchun	7 yilgacha	Kafillik va boshqa ta‘minot
3.	Avto kredit	avtomobil sotib olish uchun	5 yilgacha	Avtomobil va boshqa ta‘minot
4.	Ipoteka krediti.	uy-joy sotib olish uchun	20 yilgacha	Ko‘chmas mulk yoki boshqa ta‘minot
5.	Mikrokredit (tadbirkorlik uchun).	tadbirkorlik faoliyati uchun	5 yilgacha	Belgilangan turdagi ta‘minotlar

*Manba: Muallif tomonidan tuzildi.*

Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarning maqsadi, muddati va ta‘minoti kabi asosiy mezonlar asosida tasnifini keltirib o‘tdik. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar, chakana kredit portfeli tarkibida ipoteka kreditlari salmoqli ulushga ega bo‘lib, 2023 yil 1 yanvar holatiga 46% ni tashkil etgan. Shuningdek, mikroqarz va kredit kartalari orqali kreditlash hajmi ham yuqori o‘shish tendensiyasiga ega.

### XULOSA VA MUNOZARA

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini takomillashtirish borasida quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etadigan kredit mahsulot va turlari bo'yicha shartlarni aholiga to'liq tushuntirish. Xususan, kreditning foiz stavkasi, uning to'lanish tartibi va grafigi haqidagi ma'lumotlarni yetkazish.

2. Banklar jismoniy shaxslarga kredit ajratish amaliyotida sun'iy intellektga asoslangan baholash modellaridan foydalanish. Bugungi kunda jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonida kreditga layoqatligini baholashning skoring tizimidan keng foydalanmoqda. Skoring baholashni sun'iy intellekt asosida tashkil etish inson omilini kamaytirish bilan birga mijozlarga tezkor kreditlar taqdim etish imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2023 yil 28 yanvardagi 60-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank hisobot ma'lumotlari
3. Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlar bazasi asosida muallif tomonidan hisoblandi. <https://www.imf.org/external/datamapper/NGDPD@WEO/NLD/DEU/FRA/CAN/MYS/UKR/KAZ//USA/RUS/JPN/SGP>
4. Dolan E. J., Kempbell K. D., Kempbell R. J. Pul, bank va pul-kredit siyosati: ingliz tilidan tarjima. / E. J. Dolan, K. D. Kempbell, R. J. Kempbell. - Sankt-Peterburg, 2015 yil.
5. Sinkey J. Tijorat banklarida moliyaviy menejment: trans. ingliz tilidan / ostida. ed. R. Ya Levita, B. S. Pinsker. - M.: Katalaktika, 2014. - 854 b.